



**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MUSTAQIL ISHLARINI  
TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK USULLARI**

***Abduraxmanova Ch.B.***  
*Samarqand davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya:** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil ishlarini tashkil etish jarayoni ularning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan mustaqil ishlashning pedagogik usullari, samarali metodlar va amaliy yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, mustaqil ishlarni rejalashtirish, ularni tashkil etishda o‘qituvchining roli hamda o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish yo‘llari yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, mustaqil ish, pedagogik usullar, o‘quvchilarning faolligi, kreativ yondashuv, ta’lim metodlari, motivatsiya, mustaqil fikrlash.

**Аннотация:** Процесс организации самостоятельной работы учащихся начальной школы способствует повышению их интереса к обучению, развитию мыслительных способностей, формированию навыков самоконтроля. В статье анализируются педагогические методы, эффективные приемы и практические подходы к самостоятельной работе с учащимися начальной школы. В нем также рассматривается роль учителя в планировании и организации самостоятельной работы, а также способы повышения мотивации учащихся.

**Ключевые слова:** начальное образование, самостоятельная работа, педагогические методы, активность учащихся, творческий подход, методы обучения, мотивация, самостоятельное мышление.

**Abstract:** The process of organizing independent work of primary school students serves to increase their interest in learning, develop thinking skills, and form self-control skills. This

article analyzes pedagogical methods, effective methods, and practical approaches to independent work with primary school students. It also discusses the planning of independent work, the role of the teacher in organizing it, and ways to increase student motivation.

**Keywords:** primary education, independent work, pedagogical methods, student activity, creative approach, educational methods, motivation, independent thinking.

Yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish va 2030 yilga kelib “Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash” dasturi reytingi bo‘yicha jahonning eng ilg‘or 30 mamlakati qatoriga kirishga erishish, xalq ta’limining uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu maqsadga erishish uchun boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning o‘quv-bilish kompetensiyalarini mustaqil ishlash orqali rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim jarayonini faqat bilim berish bilan cheklamay, balki o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi. Bu yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, kreaktiv va analitik fikr yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilarning zamonaviy ish dunyosida muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarini shakllantirish ta’limning sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil ishlarini tashkil etishda zamonaviy pedagogik usullarni qo‘llash va ularning xususiyatlarini inobatga olish ta’lim jarayonini yanada samarali qiladi. Shunday qilib, o‘quvchilar o‘zlarining o‘quv faoliyatini yanada mustaqil va samimiy olib borishga qodir bo‘ladilar. O‘quvchilarda quyidagi xususiyatlarning shakllanishiga imkon yaratadi:

- shaxsiy va kasbiy ko‘nikmalarini namoyon etish;
- bilimlarni tizimlashtirish;
- o‘qitiladigan fanlarga oid bilimlarni rejalashtirish;
- sinfda va sinfdan tashqarida olingan bilimlarni tartibga solish va nazorat qilish uchun ongli ravishda foydalanish.

Mustaqil ish o‘quvchiga o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustaqil ravishda rivojlantirish imkonini beradi, bu esa ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi. O‘quvchilar o‘z vaqtlarini

to‘g‘ri boshqarish orqali, muhim maqsadlarga erishishga, yangi bilimlarni o‘zlashtirishga va shaxsiy rivojlanishga erishadilar.

Mustaqil ishlarning amalga oshirilishi o‘quvchining erkinligini ta’minlash, ishchanlik qobiliyatini oshirish va diqqatini jamlashga yordam beradi. Bu jarayonda o‘quvchilar mustaqil o‘rganishga odatlanib, o‘zlari bilimlarni egallash va muammolarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradilar.

Boshlang‘ich sinflardan boshlab, O‘quvchilarning fikrlash faoliyatini (tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish, klassifikatsiya qilish va boshqa) faoliyatini faollashtirish juda muhim. Bu jarayonlarda o‘quvchilarning bilish faoliyatiga qiziqishini oshirish, maqsadga erishishdagi faolligini va mustaqilligini rag‘batlantirish kerak.

Shuningdek, fanlar bo‘yicha o‘zlashtirishlarni muntazam nazorat qilish, darslarda o‘quvchilarning mustaqil ishlarini kengaytirish va o‘qitish metodlarini diversifikasiya qilish bugungi kunda muhim vazifalardir. O‘quvchilarning bilimlarini baholash shaklini takomillashtirish va individual yondashuvni amalga oshirish ham zarur.

Bunday yondashuv o‘quvchilarga yanada samarali ta’lim olish imkonini beradi va ularni kelajakda mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxslar sifatida tarbiyalashga yordam beradi.

Mustaqil ta’lim to‘g‘ridan-to‘g‘ri mustaqil fikrlash bilan bog‘liqdir. Mustaqil fikrlash — insonning oldida turgan muammolarni aniqlab, maqsad va vazifalarni belgilab, o‘z bilimlari va hayotiy tajribalariga tayanib, turli usullar, metodlar va vositalar yordamida, o‘z intellektual salohiyati darajasida mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy faoliyatdir.

O‘quvchilarda mustaqil ish bajarish ko‘nikmalarini rivojlantirish turli o‘quv fanlari orqali amalga oshiriladi. Masalan, matematik olim S.I. Demidova ta’kidlaganidek, mustaqil ishlarni samarali tashkil etish, didaktik maqsadlarga yo‘naltirilgan topshiriqlar berish va mustaqil ish mazmunini tushuntirish jarayoni mustaqil ish sifatida qaraladi. Bu jarayonda bilimlarni qidirish, ularni tushunish, mustahkamlash, shakllantirish, rivojlantirish, tizimlashtirish va umumlashtirish kabi faoliyatlar amalga oshiriladi.

Natijada, mustaqil ta’lim jarayoni o‘quvchilarni faollashtiradi va ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida, o‘quvchilarning muammolarni hal qilish va bilimlarni amalda qo‘llash qobiliyatini oshiradi.

O‘qituvchilar intilishlari, bilim darajasi, qiziqishlari va o‘zlashtirish darajasini chuqur o‘rganishi, tahlil qilishi va monitoring qilishi kerak. Shuningdek, ularning ma’naviy ehtiyojlarini hisobga olish, o‘quvchilar bilan emosional munosabatlar o‘rnatish va ularning aqliy, axloqiy va amaliy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash muhimdir. O‘qituvchilar o‘z bilimlarini oshirish uchun doimiy ijodiy va ilmiy izlanishlar olib borishi va aniq maqsadlarga yo‘naltirilishi lozim.

Mustaqil ishslash jarayoni o‘quvchiga o‘z bilimlarini mustaqil ravishda kengaytirish, yangi qiziqarli ma’lumotlarni o‘rganish imkonini beradi. Bu, shuningdek, ta’lim jarayonida o‘z-o‘zini rivojlantirish va yangi ko‘nikmalarini egallash uchun zarurdir. O‘quvchilarning mustaqil ishlari, ularning shaxsiy va akademik muvaffaqiyatlari uchun asosiy poydevor hisoblanadi.


G.Niyozmuhammedovaning “Ijodiy faoliyatni oshirishning pedagogik tamoyillari” maqolasida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishga oid pedagogik qoidalar tahlil etiladi. Yosh maktab o‘quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Aynan shu davrda o‘quvchilarning shaxsiy aqliy, ma’naviy va axloqiy asoslari shakllanadi Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy faollikning o‘sishi pedagogik tamoyillarga asoslanishi mumkin:

- o‘quvchilarning qobiliyatları bilan ijodiy rivojlanishning o‘zaro aloqasini inobatga olish;
- qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik ta’sir vositalarini qo‘llash;
- idrok qilish bolalar ijodiy faolligini shakllantirishning asosiy negizi hisoblanadi;

Bu esa o‘quvchilarda

- o‘z ishini rivojlantirish;
- qo‘sishimcha adabiyotlar bilan ishslash;
- matndan asosiy fikrni ajrata olish;
- qo‘yilgan masalaga javob berish, rejani tuzish;

mavzu mohiyatini ifodali, aniq va mantiqli bayon qilish ko‘nikmalarii shakllantiradi.



**1-rasm. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari faoliyatiga ko‘ra, ijodiy topshiriqlarni uch  
guruhgaga ajratib tahlil qilish mumkin.**

**Xulosa va takliflar.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil ishlarini samarali tashkil etish ularning bilim olish jarayonida faolligini oshirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va mas’uliyat hissini shakllantirishga xizmat qiladi. Mustaqil ishlarni to‘g‘ri rejalashtirish va pedagogik usullardan unumli foydalanish o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularning ijodiy va analitik tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. O‘qituvchi mustaqil ish jarayonida o‘quvchilarga yo‘nalish beruvchi, rag‘batlantiruvchi va nazorat qiluvchi sifatida faol ishtirok etishi lozim. Tadqiqot natijasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- 1. Differensial yondashuvni qo‘llash** – o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, mustaqil ishlarni darajalarga ajratish.
- 2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish** – interfaol usullar, texnologik vositalar va o‘yinli metodlarni qo‘llash.

**3. Motivatsiyani oshirish** – o‘quvchilarning mustaqil ishlarga qiziqishini oshirish uchun ularni rag‘batlantirish va natijalarni baholash tizimini takomillashtirish.

**4. Ota-onalar bilan hamkorlik** – mustaqil ishlarning samaradorligini oshirish uchun ota-onalarni jalb qilish va ularga metodik tavsiyalar berish.

**5. Mustaqil ish turlarini kengaytirish** – individual, juftlik va guruhli mustaqil ish shakllaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI**

1. Akilov R “O‘zbekistonda boshlang‘ich ta’limda kompetensiya yondashuvlari”. MDH Ta’lim Jurnali, 2023-y 9(2), Bet: 70-85.

2. Aliyev N “Mustaqil ishlar va kompetensiyalar: O‘zbekiston va boshqa MDH mamlakatlari tajribasi”. O‘zbekiston Ta’lim Innovatsiyalari jurnali, 2024-y 12(1), Bet: 60-75.

1. 3.O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining tavsiyalari “Ta’limda innovatsion metodlar va texnologiyalarni qo‘llash” 2022-yil 15-yanvar

3. 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-soni “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari

4. Tolipov O‘.K., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2006.